

EXINOKOKK VA U KELTIRIB CHIQRADIGAN KASALLIKLAR

Mamadaliyeva E.Sh

Xushbaqova M.R

*Toshkent tibbiyot akademiyasi kafedra assistenti**Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi*

Annotatsiya: *Inson organizmining parazitlar orasidagi munosabat. Exinokokk morfologiyasi va rivojlanish sikli. Exinokokk bilan zararlangan organlarda kechadigan o'zgarishlar. Exinokokk profilaktikasi va davolash usullari.*

Anatocia: *relationships between parasites of the human organism. Echinococcal morphology and developmental cycle. Changes in organs affected by echinococci. Methods of prevention and treatment of echinococcus.*

Анаточия: *Взаимосвязь между паразитами человеческого организма. Морфология и цикл развития эхинококка. Изменения органов, пораженных эхинококками. Методы профилактики и лечения эхинококка.*

Kalit so'zlar: *parazit, exinokokk, gigiyena qoidalari, gelmintlar, skoleks, finna, xo'jayin organizm, jigar, o'pka, miya, zararlash, lichinka, xartum, xitin, alveolar, kista.*

Key words: *parasite, echinococcus, rules of hygiene, helminths, scolex, finna, host organism, liver, lung, brain, damage, larva, chitin, alveolar, cyst.*

Ключевые слова: *паразит, эхинококк, правила, гигиена, гельминты, сколекс, финна, организм, хозяина, печень, легкое, мозг, поражение, личинка, хитин, альвеолярный отросток, киста.*

Kalit so'zlar: *parazit, exinokokk, gigiyena qoidalari, gelmintlar, skoleks, finna, xo'jayin organizm, jigar, o'pka, miya, zararlash, lichinka, xartum, xitin, alveolar, kista.*

Gelmintlar(parazitlar)

Tirik organizmni o'ziga xosligi bu uni tashqi muhit bilan bog'liqligidir. Organizmlar o'rtasida biotik bog'lanishlar murakkabligi va xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Oziqa va makon uning asosiy bog'lanishlaridir va bu bog'lanishlar dan biri parazitizm ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Parazitizm hodisasi ikkita har xil turga mansub organizmlarni o'zaro bir-biri bilan bo'lgan munosabatlarini ko'rinishi hisoblanadi. Gelmintologiya parazit chualchanglar, gelmintlar hamda odam, o'simlik va hayvonlarda ular keltirib chiqaradigan kasalliklarni o'rganadigan fan. Parazitlik qilib hayot kechiruvchi organizmlar gelmintlar, ular keltirib chiqaruvchi kasalliklar esa gelmintozlar deb yuritiladi. Gelmintlar o'z navbatida tirik organizmlarda juda o'g'ir kasalliklarni ham yuzaga keltiradi. Turli xildagi parazitli kasalliklar vujudga kelishi, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilmasliklari natijasida vujudga keladi. Atrof muhitda ko'plab har xil turga mansub parazitlarni uchratish mumkun. Bu parazitlar ho'jayin organizm hisobiga rivojlanishadi.

Exinokokk morfologiyasi

Hayvonlar va odamlarga juda katta zarar keltiradigan tasmaimon chualchanglardan biri exinokokk hisoblanadi. Voyaga yetgan exinokokk shakli tasmaimon, uzunligi 2-6mm atrofida, tanasi skoleksi 3-4 bo'g'imdan tashkil topgan. Skoleksida so'rg'ichi va xartumi

mavjud. Xartum 28 tacha xitinli ilmoqchalar bilan ikki qator joylashgan. Skoleksidan keyingi birinchi va ikkinchi bo'g'implari germofrodit bo'lib, unda urug'don va urug'ni tashuvchi naycha, jinsiy bursa, tuxumdon, melis tanachasi va qin joylashgan. Oxirgi yetilgan bo'g'implar 400-800 ta tuxum bilan to'lgan bo'ladi. Voyaga yetgan exinokokk it va boshqa g'o'shtxo'r yirtqich hayvonlar ichagida 6 oy, ba'zan 1 yilgacha hayot kechirishi mumkin. Parazitning yetilgan oxirgi bo'g'implari asosiy xo'jayini axlati bilan tashqariga chiqariladi va bo'g'implar faol harakat qilib, bir necha masofani bosib o'tib, yem-xashak hamda boshqa narsalarda o'z tuxumlarini sochadi.[2] Parazit tuxumlarini qo'y, echki, qoramol, tuya exinokokk tuxumlarini yem-xashak bilan istemol qiladi. Natijada parazit tuhumlari oraliq hujayin organizmiga tushadi. Mazkur hayvonlar ichagida tuxumdan ajralgan lichinka ichakni teshib qonga o'tadi, so'ng hayvonlarning o'pkasi, jigari, buyragiga joylashadi. Zararlangan orgonlarda finna hosil bo'ladi. Finna rivojlanishi uzoq vaqtini talab etadi. Ba'zi hollarda finna rivojlanishi 10-30 yilgacha ham cho'zilishi mumkin. Finna ichida parazit lichinkasi rivojlanadi. Exinokokk pufaklari bilan zararlangan organlar hajmi kattalashib, shakllari o'zgarib ketadi. Exinokokk pufaklari no'xatdek, yong'oqdek, olmadek va ba'zan chaqaloq bosh hajmiga teng keladi. Finna suyuqlik bilan to'lgan bo'ladi va bu suyuqlik xo'jayin organizmini kuchli zararlaydi. [1,2]

Exinokokkoz diagnostikasi

Echinococcus granulosus- exinokokkozning kista shaklini keltirib chiqaradi, odatda kistalar shakllanishi bilan jigar va o'pkalarda bo'ladi.

Echinococcus multilocularis- exinokokkozning alveolar shaklini keltirib chiqaradi, jigar to'qimalarga ta'sir qiladi.

Echinococcus oligarthrus- Markaziy va Janubiy Amerikada qayd etilgan neotropik exinokokkoz kasalligini keltirib chiqaradi.

Echinococcus vogeli- jigar va o'pkada bir nechta kistalar paydo bo'lishiga olib keladi, odatda kistalar ko'p kamerali bo'ladi.

Echinococcus oligarthrus- juda kam uchraydigan monokistik shaklni keltirib chiqaradi.[11]

Gelmint turli organlarda parazitlik qiladi. U yillar davomida rivojlanadi va dastlabki davrlarida kasallik belgilari yashirin holda keladi. Jigar exinokokkozi rivojlanishi dastlab pufag hajmi ortishi sayin biqin, ya'ni o'ng qovurg'a osti og'rib, og'riq birinchi yelkaga va belga o'tadi. Bemorda charchoqlik xissi paydo bo'ladi. Dastavval bemorning nafasi qisa boshlaydi va ishtaha keskin yo'qoladi. Jig'ildon qaynashi, zarda tutishi, ko'ngil aynishi va qayt qilishlar kuzatiladi. Bemor tana vazni keskin kamayadi, haddan tashqari ozib ketish va badanga eshakyemi toshishi orqali kasallik o'zini nomoyon etadi. Exinokokk pufagi kattalashib o't yo'llarini ezib qo'yishi oqibatida, odatda o't pufagi dimlanib qoladi va turli xil darajadagi sariqlik paydo bo'ladi.[11]



Agar pufaklar o'pkada joylashsa, uning hajmi oshgan sayin bemorda nafas qisishi, quruq yo'tal va ko'krak qafasida sanchiqlar paydo bo'ladi. Miyada parazitlik qiluvchi exinokokkoz ham kuzatiladi. Bosh miya exinokokkozlarining klinik manzarasida gipertenzion sindrom, o'choqli simptomlar ko'rinishida bo'lib, bosh miya o'simalarining klinik kechishini eslatadi. Kalla suyagi ichida bosinning oshib ketishi-gipertenzion sindrom bosh og'rihi, boshning aylanishi, ko'ngil aynishi, qusish, ko'ruv nervining dimlanishi, holsizlik, jumladan epileptik xurujlar kuzatiladi. [11]



Kasallikni davolash usullari

Organizm zaiflashib kasalliklarga moyil bo'lib qoladi. Exinokokk pufakli shaklini jarrohlik usulisiz olib tashlab bo'lmaydi. Bemorni operatsiya qilish talab etiladi. Kasallikni

kistik va alviolar ko'rinishlari ham mavjud. Kistik va alveolyar exinokokkozni davolash ko'pincha murakkab bo'lib, keng qamrovli jarrohlik yoki uzoq muddatli dori terapiyasini talab etadi. Kistik exinokokkozni davolashning 4 ta usuli mavjud. PAIR texnikasi yordamida kistalarni teri orqali davolash, jarrohlik, infeksiyaga qarshi dorilar bilan terapiya, kuzatuv. Alveolar exinokokkozda davolanishning asosi erta tashxis qo'yish. So'ngra albendazol yordamida infeksiyaga qarshi profilaktika kursi bo'lib o'tadi. Afsuski, ko'plab bemorlarda bu kasallik kech bosqichlarda aniqlanadi. Agar palliativ jarrohlik samarasi infeksiyaga qarshi terapiyaning to'liq kursi bilan birga bo'lmasa, ko'pincha relapslar paydo bo'ladi. Alveolar exinokokkozni davolash biroz qiyinroq kechadi.[10,3,4,11]

Profilaktikasi

Exinokokk va shu kabi gelmintlarni yuqtirib olmaslik uchun sanitariya va veterinariya nazorati o'rnatilishi, alohida sanitariya ishlari olib borilishi, daydi itlarni kamaytirish, xonaki itlar va uy hayvonlarini degelmintizatsiya qilish, shaxsiy gigiyena qoidalariga muntazam amal qilish kerak. To'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yish, jumladan go'sht mahsulotlarini yaxshi pishirilgan holda iste'mol qilish lozim. Yovvoyi kemiruvchilarga kiruvchi mahalliy yirtqich hayvonlarni muntazam ravishda degelmintizatsiya qilish odamlarda infelsiya xavfini kamaytirishga yordam beradi. Yevropa va Yaponiyada olib borilgan tadqiqotlarda shuni ko'rsatadiki, parazitlarning mutloq xo'jayini bo'lgan yovvoyi hayvonlar va qarovsiz hayvonlarni antigelmintik yemlar yordamida delgelmintizatsiya qilish exinokokkoz tarqalishini sezilarli darajada kamaytirish yordam beradi.[11]

Xulosa

Gelmintlarni inson organizmiga yuqmasligi uchun sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish lozim. Go'sht mahsulotlarini xom istemol qilish gelmintlarni organizmga yuqush va organizmda rivojlanishida sharoit yaratib beradi. Organizmga tushgan parazit xo'jayin orgonlarida parazitlik qila boshlayda. Odam holsizlanib, ozib ketadi. Inson uchun tashqi muhitdan kirgan, organizm uchun foydali bo'lgan ozuqa bilan oziqlanishi natijasida odamda tez charchash, rangining ochib ketishi, bezovtalanish kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.S. Dadayev, G. Abduraxmonova " Umumiy parazitologiya"
2. P.X.Xalikov, A.Q.Qurbonov, A.O.Daminov, M.V.Tarinova "Tibbiy biologiya va genetika"
3. Ergashev U.Y Xirurgik kasalliklar ToshTA2020
4. Oripov O. Umumiy xirurgiya Yangi asr avlodi 2008
5. Бронштейн А.М., Малишев Н.А., Лучшев В.И.//Рос. Мед.журн.-2007.
6. Torgerson PR. //Acta Trop.-2003.- Vol.85, N 2.-P. 113-118
7. Eckert J., Deplazes P. // Clin. Microbiol. Rev. -2004. -vol. 17, N 1.-P. 107-135
8. Мусаев Г.Х., Фатъянова А.С., Левкин В.В Принципы и современныу тенденции лечения эхинококкоза печени // хирургияю Журнал им. Н.И. Пригова -2017; (12) 90-94
9. <https://www.invitro.ru/library/bolezni/32304/>
10. "<https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Exinokokkoz&oldid=3591749>"
11. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/echinococcosis>